



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 263-268 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

RESPUBLIKADA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING FUNDAMENTAL ASOSLARI



Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
Menejment kafedrasida dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya: Mazkur maqolada biznesning nazariy va amaliy jihatlari, uning O'zbekiston iqtisodiyotida rivojlanish yo'llari va strategiyasini tanlash, kuzatish usullari orqali statistik tahlillar, tasniflash, shuningdek, biznesni rivojlantirish ko'rsatkichlarini, jumladan, iqtisodiyotni shakllantirishda xususiy sektorni takomillashtirish yo'llari, shu bilan birga, O'zbekistonda biznesni rivojlantirish istiqbollari dinamik o'zgarishlarni taqqoslash va bashoratlash ma'lumotlarini taqdim etishda truli xil ma'lumotlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Biznes, raqobatbardoshlik, innovatsiya, mikrofirma, xususiylashtirish, oilaviy tadbirkorlik, yakka tartibdagi tadbirkorlik, kichik biznes, ma'lumotlarning statistik tahlili, tahliliy usul, prognoz.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты предпринимательства, пути его развития и стратегии в экономике Узбекистана, выбор которых посредством методов наблюдения, статистического анализа, классификации, а также показателей развития предпринимательства, в том числе путей совершенствования частного сектора в формировании экономики. При этом изучались различные данные для предоставления информации по сравнению и прогнозированию динамических изменений перспектив развития бизнеса в Узбекистане.

Ключевые слова: Бизнес, конкурентоспособность, инновации, микрофирма, приватизация, семейное предпринимательство, индивидуальное предпринимательство, малый бизнес, статистический анализ данных, аналитический метод, прогноз.

Abstract: In this article, the theoretical and practical aspects of business, its development ways and strategies in the economy of Uzbekistan, through statistical analysis, classification, as well as ways of improving the private sector in the formation of the economy, are presented through observation methods. At the same time, a variety of data have been studied to provide information on comparing and predicting dynamic changes in business development prospects in Uzbekistan.

Key words: Business, competitiveness, innovation, micro-firm, privatization, family business, sole proprietorship, small business, statistical analysis of data, analytical method, forecast.


Kirish

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo'lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha qulay ishbilarmolik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi. Bozor iqtisodiyotining amal qilishi iqtisodiyotning jadal rivojlanib borayotgani va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarini oshirishning asosi bo'lib turli biznes va tadbirkorlik muhim o'rin tutadi. Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, mehnat unumdorligi va raqobatbardoshligi oshirilmoqda, kambag'allik kamaymoqda va jamiyat maqsadlariga erishilmoqda, xususan, aholining muayyan guruhlariga o'z-o'zini ta'minlashga ko'maklashilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari bilan O'zbekiston Respublikasini, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyalari, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Shuningdek, "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida", "Innovatsion faoliyat to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida" gi qonunlari qabul qilindi. Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha kichik va o'rta korxonalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga ruxsat beriladi. Hususan, mahalliy va xalqaro kapital bozorlarida, shu jumladan xalqaro moliya institutlari va davlat moliya tashkilotlarining mablag'larini jalb qilishi mumkin. Kompaniya yangi ish o'rinlari yaratish, kichik va o'rta biznesning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yangi mahsulot turlarini yaratishda "yashil" va energiya-tejash texnologiyalarini joriy etishni rag'batlantirish, o'z-o'zini band bo'lgan shaxslarning loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha davlat, sanoat va mintaqaviy loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etadi.

Kichik biznesning o'ziga mos ravishda bozor sharoitlariga yuqori darajada moslashuvchanligi va mamlakatdagi makroiqtisodiy jarayonlarni barqarorlashtirishga yordam beradi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda tarmoqning ma'lum hosildorligi, yuqori mehnat zichligi, yangi texnologiyalarni joriy etishning murakkabligi, o'z resurslarining cheklanganligi, raqobat xavfining kuchayishi bilan ajralib turadi. Bizningcha, qonunni aniq buzganlik yoki yetarli darajada bajarmaganlik uchun jazo choralarini nazarda tutuvchi aniq tizimni yaratish maqsadga muvofiqdir. Qonunchilikning ijrosi ustidan tadbirkorlik faoliyatini nazorat qilish alohida o'rin tutadi va iqtisodiy islohotlar to'liq huquqiy maydonga asoslanishi kerak. Bunday holda, sudlar va hakamlik organlari oldida mutlaqo teng huquqli bo'lishi kerak. O'zbekistonda sanoat va mintaqaviy ustuvor dasturlar ishlab chiqilgan va korxonalarini rivojlantirish muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda o'zbekistonlik tadqiqotchi olim va mutaxassislar orasida tadbirkorlikni yanada rivojlantirish masalasini kengroq va atroflicha o'rganishga qiziqish ortmoqda. Bu borada quyidagi olimlarni e'tirof etish mumkin: Yuldashev Sh., Vahobov A., Vahobov U., Burxonov U., xorijiy olimlardan, Alfred Marshall, Y.Schumpeter va boshqalar mazkur masalalarni tadqiq qilganlar. Polshalik iqtisodchi M. Kaleckiyning fikriga ko'ra, tadbirkor bo'lishning eng muhim sharti kapitalga egalik qilishdir. Biznes uchun shart-sharoit nuqtai nazaridan u mutlaqo haq edi. Shunga qaramay, tadbirkorlik ko'nikmalari ham muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini o'sishida barqarorlikka erishilmoqda. Buni quyidagi diagramma ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsulot (YAIM) dinamikasi¹




Manba.Statistika agentligi.

Ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, o'tgan 2023 yilda mamlakat YIM hajmi 6 foiz o'sib, 90,9 milliard dollarga (o'rtacha almashuv kursi 11,737 so'm) yetdi. Bu raqam aholi jon boshiga hisoblaganda 2,5 ming dollardan to'g'ri keladi.

O'zbekistonda kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun keng qamrovli ekotizim yaratiladi. Shu maqsadda "Qishloq qurilish bank", Biznesni rivojlantirish bankiga aylantiriladi. Prezidentning so'zlariga ko'ra, bankning faoliyati ham, ishlash usullari ham, jumladan, moliyalashtirish mexanizmlari ham jiddiy o'zgarishlarga uchraydi. Xususan, har bir hududdagi bank huzurida kichik biznes markazi tashkil etiladi. Mazkur markazlar tadbirkorlar tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan biznes loyihalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ular yangi loyihalarni amalga oshirishga intilayotgan tadbirkorlarni mustaqil ravishda o'qitish, zarur mutaxassislarni jalb etish, buxgalteriya hisobi, soliq, audit, marketing, yuridik va boshqa maslahat xizmatlarini taklif etadi. Markazlar yangi korxonalariga zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, xodimlarning malakasini oshirish, mahsulotlarini samarali yo'lga qo'yishda yordam beradi, deb ma'lum qildi Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi, tijorat banklari va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda qabul qilingan eng muhim hujjat xorijiy mablag'lar va banklarni rivojlantirish, Kafolat jamg'armasini tashkil etish bo'yicha takliflardir. Unda tadbirkorlik subyektlari uchun tijorat banklari tomonidan yangi asbob-uskunalar sotib olish uchun ajratilgan kreditlar bo'yicha garov ta'minotining ochilmagan qismiga ehtiyoj ko'zda tutilgan. Ma'lumki, tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratishda kreditlashning asosiy tamoyillaridan biri garov bilan ta'minlangan kreditdir. Asosiy muammo - investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tadbirkorlik Respublikasining garov ta'minotining yo'qligi. Biznes tomonidan kreditlar uchun kafolat yo'qligi muammosi nafaqat iqtisodiyoti o'tish davridagi mamlakatlarda, balki AQSh, Yaponiya va Evropa Ittifoqi mamlakatlari kabi rivojlangan mamlakatlarda ham mavjud. Bu mamlakatlarda masala faqat kreditlar qaytarilishini kafolatlash mexanizmi – kafolat fondi orqali hal qilinadi. O'zbekistonda biznesni yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar beriladi:

- tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga davlat va nazorat organlarining aralashuvini qisqartirish;
- tadbirkorlik subyektlari uchun soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha maksimal qulay shart-sharoitlar, imtiyoz va preferensiyalar yaratish, hisobot tizimini hamda moliya, soliq va statistika organlarida hisobotlarni taqdim etish mexanizmini takomillashtirish va standartlashtirish;
- biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalar, ayniqsa, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlari va xususiy kapitalni keng jalb etish va yo'naltirish;
- axborotni boshqarish tizimini yanada rivojlantirish va biznesga maslahatlar berish, shuningdek, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish masalalarida;
- kichik biznes subyektlarining bank kreditlari, xom-ashyo resurslari olish imkoniyatlarini kengaytirish.

Tan olish kerakki, yalpi ichki mahsulotda biznesning ulushi yildanyilga ortib bormoqda. Quyida ko'rib turganingizdek, shtrixli diagramma 2010-yildan 2023-yilgacha biznesni rivojlantirish ulushining o'sish tendentsiyasini ko'rsatadi.



Manba. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotda biznesning ulushi www.stat.uz sayti asosida.

Diagrammada shuni ko'rishimiz mumkinki, yalpi ichki mahsulotda biznesning yildan yilga oshib bormoqda. Biroq Covid-19 pandemiya davrida biroz pasaygan. Lekin 2022-yildan buyon ushbu ko'rsatkich yildan-yilga oshib bormoqda.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada osonlashdi. Ro'yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Ishchilarning yillik o'rtacha soni 100 kishigacha ko'paytirilgan kichik korxonalar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng miqyosda jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi. Davlat va nazorat idoralari korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin kamaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli ravishda kengaytirish bo'yicha choralar qabul qilindi. Yangi tashkil qilingan kichik korxonalar va mikrofirmalarni rejali soliq tekshiruvlaridan ozod etish muddati ikki yildan uch yilga uzaytirildi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'layotgan, shuningdek, ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlari va rentabelligini ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarida uch yil davomida soliq tekshiruvlarini o'tkazish taqiqlandi. Tijorat banklarining kapitallashuv darajasi oshmoqda, kichik biznes subyektlarida yuqori texnologik uskunalarni xarid qilishi uchun imtiyozli kreditlash mexanizmi takomillashtirildi. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan, tadbirkorlik faoliyatini erkinligini cheklayotgan bir qator muammolar hal etilmay qolmoqda. Tadbirkorlik subyektlarining davlat, soliq va nazorat idoralari, tijorat banklari bilan o'zaro munosabatlarini aniq belgilab beradigan ma'muriy reglament to'liq ishlab chiqilmagan. Nazorat idoralari tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish holatlari uchramoqda. Biznes yanada moslashuvchan va talabning o'zgarishiga, global va mintaqaviy bozorlardagi vaziyatga tez moslasha oladi, ularning muammolariga o'z vaqtida javob bera oladi, chunki u ixcham shaklga ega, qarorlar qabul qilishda harakatchanlik va tezkorlikka ega va u innovatsiyalarni qabul qiladi. Biznesni tashkil etish va rivojlantirish katta xarajatlar va

kapitalni talab qilmaydi, bu esa modernizatsiya, texnik va texnologik jihozlarni tezroq va oson amalga oshirish, yangi mahsulotlarni o'zlashtirish, uning assortimentini doimiy ravishda yangilash va raqobatbardoshlikni ta'minlash imkonini beradi. Bu sohaning yirik korxonalariga nisbatan barqarorligi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi muammolari va oqibatlariga nisbatan ancha yuqori. Biznes nafaqat daromad manbai, balki odamlarning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini ochib berish imkoniyatidir. Bunday qamrov har kimga o'zining individual iste'dodi va imkoniyatlarini namoyon etish imkonini beradi va shu orqali maqsadga erisha oladigan odamlarning yangi qatlamini – g'ayratli, tashabbuskor va o'z-o'zini ish bilan ta'minlashga moyilligini shakllantiradi.

Xulosa va takliflar

Hulosa qilib aytganda, kelgusi 5 yilga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida ham davlatning iqtisodiyotdagi roli va ulushini keskin qisqartirish asosiy besh yo'nalishdan biri sifatida belgilangan va davlat aktivlarini xususiylashtirish orqali 2026 yilga qadar eksklyuziv huquqlarni bekor qilish va davlat korxonalarini xususiylashtirish hisobidan 25 dan ortiq faoliyat turlari bo'yicha monopoliyalar tugatiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish tamoyillari soliq imtiyozlarini berish, soddalashtirilgan soliq tizimini qo'llash, imtiyozli kreditlar berish, davlat soliq va statistika organlarida soliq va buxgalteriya hisobini yuritish davriyligi va muddatlarini qisqartirish, soliq imtiyozlarini kamaytirish yo'llari hisoblanadi. Barcha erishilgan yutuqlarga qaramay, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasida jiddiy muammolar va nomutanosibliklar mavjud bo'lib, ularning atributlari iqtisodiyotning ushbu tarmog'ining deyarli barcha tarmoqlari va segmentlarida kuzatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 06.07.2022-yildagi PF–165-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6102462>.
2. A. Marshall. "Principles of Economics", (1890). Principles of Economics by Alfred Marshall | Goodreads.
3. A. Vahobov. "Iqtisod nazariyasi", (2014) Iqtisod nazariyasi. Vahobov A., O'lmasov A. 2014. – TSUL – Library (library-tsul.uz).
4. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasining Statistika qo'mitasi rasmiy veb sayti.
5. Soxadaliyev A.M., Soxadaliyev B.A. Location of small business and private business in the country's economic development. *Ekonomika I sotsium.*(2) 65-67. 2018.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

